

**"ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA OBRAZLAR ICHKI
KECHINMALARI TAHLILI**

Doniyarova Dilnoza Zakirovna

*Oriental universiteti Samarqand kampusi, Filologiya
va tillarni o'qitish: o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
3-kurs talabasi.*

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.07.2026

Revised: 18.07.2026

Accepted: 19.07.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Psixologizm, ichki
kechinma, shuor
oqimi, ichki
monolog, zamonaviy
hikoya, ramz, badiiy
detal, adabiy
qahramon, matn
estetikasi.*

ANNOTATSIYA:

*Ushbu maqolada XXI asr o'zbek hikoyachiligida
inson ruhiyati, ichki kechinmalar tasviri va ruhiy
tahlil (psixologizm) tamoyillari tadqiq etilgan.*

*Bugungi o'zbek hikoyalarida tashqi syujet
chiziqlarning ichki syujetga (ruhiyat
harakatiga) ko'chishi zamonaviy adiblar ijodi
misolida tahlil qilingan. Maqolada Nazar*

*Eshonqul, Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdam
hikoyalaridagi qahramonlar ichki olamini ochib
berishda qo'llanilgan badiiy estetik
vositalar, xususan, ichki monolog, shuor oqimi va
badiiy detallarning vazifalari adabiyotshunoslik
ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.*

Kirish.

XIX asr oxiri va XX asr jahon adabiyotida kechgan jiddiy evrilishlar, modernistik oqimlarning paydo bo'lishi badiiy tafakkurning diqqat markazini tashqi ijtimoiy voqelikdan insonning ichki intellektual va ruhiy olamiga burib yuboradi. **(1-25)**

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi ham bugungi kunda ushbu global adabiy jarayonlar bilan hamnafas tarzda rivojlanmoqda. XXI asr boshiga kelib o'zbek qisqa nasrida qahramonning ijtimoiy qiyofasini chizishdan ko'ra, uning botniy olamiga kirib borish

"men" ini tadqiq etish yetakchi tamoyilga aylandi.

Taniqli adabiyotshunos olim Umarali Normatov ta'kidlaganidek: "Bugungi o'zbek hikoyachiligi **(2-38)** inson qalbining eng yashirin, xira va ifodalash qiyin bo'lgan qatlamlariga ko'z tikayotgani bilan karakterlanadi". Ushbu maqolaning maqsadi - zamonaviy o'zbek hikoyalarida obrazlarning ruhiy kechinmalari qanday badiiy usullar yordamida tahlil qilinayotganini aniqlash va ularning ilmiy-nazariy asoslarini

ko'rsatib berishdan iborat.(1-48)

Asosiy qism:

Zamonaviy yozuvchilar qahramon ichki dunyosini ko'rsatishda an'anaviy tasvirlardan voz kechib yangi usullardan unumli foydalanmoqdalar:

1.Ichki monolog va shuor oqimi:

Qahramonning his-tuyg'ulari kitobxonga uning o'z nutqi va chalkash o'ylari orqali yetkaziladi.Masalan,Nazar Eshonqul hikoyalarida qahramonlar ko'p hollarda tashqi dunyodan uzilib,o'z fikrlarini asiriga aylanadi.

2.Badiiy ramzlar va detallar:

Obrazlarning tushkunligi yoki umidlari bevosita ularni o'rab turgan narsalar,ranglar va ob-havo(masalan,muttasil yog'ayotgan yomg'ir,qorong'u xona,qurigan daraxt)orqali chiziladi.

•Nazar Eshonqul ijodida begonalashuv:

Adibning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida insonning ma'naviy inqirozi, o'zligidan uzoqlashish va ichki qo'rquvlari absurd unsurlar yordamida ochib beriladi.Qahramon kechinmalari ijtimoiy muhit tanazzuli bilan bog'liq.

•Isajon Sulton ijodida falsafiy tahlil:

Yozuvchining hikoyalarida inson ruhining poklanishi,iymon,mehr va vijdon azobi masalalari yetakchilik qiladi."Onaizor" kabi asarlarida qahramonlarning ichki dunyosidagi lirik samimiylilik va ezgulikka intilish ruhi psixologik chizgilar orqali ko'rsatiladi.

•Ulug'bek Hamdam ijodida intellektual iztirob:

Adib hikoyalari zamonaviy ziyoli inson obrazining ma'naviy izlanishlari,ideal va reallik o'rtasidagi muvozanatni yo'qotishi kabilar bosh mavzusidir.Qahramonlar ichki ziddiyatlar va ikki o't orasida qolish hissini boshdan kechiradi.

•Isajon Sulton("Boqi xonadon","onaizor")

–Uslub:Falsafiy-tasavvufiy va ma'naviy tahlil.

–Kechinmalar:Yaratuvchini anglash,yashashning ilohiy mohiyati,mehr va ichki xotirjamlik izlash.

–Mohiyat:Inson ruhining yuksalishi va ma'naviy poklanish jarayoni tadqiq etildi.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy tarkibiy(struktural)tahlil hamda badiiy psixologizm prinsiplariga tayanildi.

Professor Dilshod Quronovning badiiy psixologizmga oid nazariy qarashlari,xususan,uning"psixologizm-yozuvchining qahramon ruhiy hayotini tasvirlash,uning kitobxonga ko'rsatish va tushuntirish mahoratidir"degan ta'rifi tadqiqotning metodologik asosi sifatida olindi.Maqolada keltirilgan xulosalar Nazar Eshonqul,Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdam hikoyalarining matn tahlili va ulardagi psixologik vositalarning qiyosiy interpretatsiyaga asoslanadi.Hikoyachilikda obrazlar ichki tahlil-bu qahramonning

ruhiy olami, his-tuyg'ulari, motivlari va yashirin maqsadlarini chuqur o'rganish san'atidir. Bu jarayon hikoyani jonlantiradi va

o'quvchiga qahramonning xatti-harakatlari ortidagi asl sabablarni tushunishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek hikoyachiligida obrazlar ichki kechinmalari tahlili yangi strukturaviy va estetik sifat kasb etdi. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida inson ruhiyatining chuqur qatlamlari ochish, ijtimoiy muammolarga yangicha yondashish va xalqchilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu jarayon hikoyani jonlantiradi va o'quvchiga qahramonning xatti-harakatlarni ortidagi asl sabablarni tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2007. – B. 145-148.
2. Normatov U. Ijod sexida. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 89.
3. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam (hikoyalar to'plami). – Toshkent: Davr nashriyoti, 2018.
4. Isajon Sulton. Bog'ieram (hikoyalar). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIUM, 2015.
5. Hamdam U. Uzoqdagi nur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.